



SHARQ MADANIYATINING TALQINI G'ARB ADIBLARI MISOLIDA

Muxammedova Xulkar Eliboyevna

Associate professor, DSc

Uzbekistan State word Languages University

DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.14995502>

Annotatsiya: *Mazkur maqolada sharq hamda g'arb adabiyotining o'zaro ta'siri natijasida g'arb adiblari nigoxida sharq mavzusi tahlil qilindi. Sharq madaniyatining ta'sirida shakllangan obrazlar tasviri, sharq va g'arbning motivlar uyg'unligini aynan ikki madaniyat to'qnashuvi natijasida xosil bo'lganligi aniqlandi.*

Kalit so'zlar: *sharq, g'arb, adabiyot, madaniyat, adib, asar, motiv.*

Sharqning ma'naviy dunyosiga, uning badiiy qadriyatlari hazinasiga chuqurroq kirib borish hamda Osiyo va Afrika mamlakatlari xalqlari jahon taraqqiyoti tarixiga qo'shgan ulkan hissani to'g'ri baholash uchun olimlar, madaniyat va san'at namoyondalari doimo izlanishdalar. Chunonchi, G'arbning yirik madaniyat hamda fan arboblari o'zlari uchun Sharq xalqlari betakror madaniy hayotining ko'pgina qirralarini kashf etdilar va uni G'arb ilg'or madaniyati yutuqlari bilan bog'ladilar. O'z navbatida Sharqning ko'plab mutafakkirlari G'arb madaniy merosi va turmushiga murojaat etib, o'z milliy madaniyatlarini boyitdilar, vatandoshlarining madaniy va ijtimoiy hayotiga yangi-yangi qirralarini olib kirdilar.

Biroq ilmiy adabiyotda va tadqiqotlarda Sharq bilan G'arb mamlakatlarining o'zaro madaniy aloqalari muammosi ko'pincha bir tomonlama hal etib kelindi, ya'ni Sharqning Farbga madaniy ta'siri deyarli e'tiborga olinmadi. Filologiya fanlari doktori, zaxmatkash manbashunos F.Sulaymonova xaqli ravishda ta'kidlaganidek, fanda umuman "... xalqlarimizning uzoq o'tmishini, ularning umum insoniy madaniyat rivojiga qanday hissa qo'shganini yorituvchi asarlar yaratilmadi. ... borlari xam ko'pincha evroposentrizm nuqtai nazaridan, Sharq xalqlari, Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatini mensimaslik nuqtai nazaridan fakt va voqealarni talqin qiladi"[3,-B.12].

Ta'bir joiz bo'lsa, bu muammo hozirgacha ham o'z echimini topgan emas va xaqgo'y tadqiqotchilarini kutmoqda. Uni xal etishda bir qator muammolar, ya'ni Sharq madaniyatining bir qobiqqa o'ralashib qolganligi to'g'risidagi qarashlar, bu madaniyatning qoloqligi, to'laqonli emasligi va sharqliklar turmushining qiyinligi xaqidagi evropacha fikrlar, shuningdek, ayrim sharqona qarashlarni engish lozim bo'ladi.



Ko'plab ilg'or mutafakkirlar hamda madaniyat arboblari bundan necha vaqtlar oldinoq Sharq va G'arb madaniyatlarining o'zaro ijobiy ta'siri, jahon madaniyatining rivojlanishi va boyishiga har ikkalasining munosib xissa qo'shganligi to'g'risida diqqat-e'tiborga arzigulik fikrlar bildirishgan. "Sharq va G'arbning qarama-qarshi qo'yilishi, – deb yozgan edi R.Tagor, – insoniyat bir qismining boshqasiga qarama-qarshi qo'yilishi jahon madaniyatini inqirozga olib boradi[4, -B. 42]. R.Tagorning xatiga R.Rollan shunday javob yozgan: "Men Sizning g'oyalaringizga to'liq qo'shilaman... Bugun, avval bo'lmaganidek, Yevropa Osiyo fikriga muxtoj, xuddi shuningdek Yevropa bilan aloqadan Osiyo ham boyiydi. Sharq va G'arb inson miyasining yarim sharlari, agar ulardan birining faoliyati buzilsa, bundan butun tana tanazzulga yuz tutadi".

Bu fikrlar istiqloqlarga erishgan davlatlar jahon taqdirida tobora katta rol o'ynayotgan hozirgi kunda ayniqsa muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sharq mamlakatlarining hozirgi ilg'or madaniyati faqat jahon madaniyati ijodiy tajribasini qabul qilib qolmasdan, o'z navbatida, o'zining uyg'ongan hayotiy jo'shqin quvvati, kelajakka ishonchi, chuqur ildizli xalq an'analaridan oziqlanuvchi ijtimoiy nekinligi bilan ta'sir ham ko'rsatmoqda.

Jaxon madaniyatining XVI asr oxiri va XVII asr boshlaridagi ko'rinishlarida ifodalangan muhim xususiyati G'arb madaniyatining Sharqqa intilishi bo'lib, uning Sharqqa taassub muammolariga to'lib-toshishi bilan xarakterlanadi. Farb san'atining adabiyot, rangtasvir, musiqa va boshqa turlarida Sharq dunyosini aks ettirishning o'ziga xos badiiy shakllari rivoj topadi. G'arbda murakkab va rang-barang xodisa-falsafa va badiiy sharqshunoslik taraqqiy etadi. Bu xodisa haqida jaxon madaniyatida juda ko'plab yozilganiga qaramasdan, uning mohiyati to'lasincha ochilgan, deb bo'lmaydi. G'arb madaniyati namoyandalarining Sharqqa murojaati jahon adabiyoti durdonalari bo'lmish K.Marloning "Buyuk Amir Termur", Gyotening "G'arbu Sharq devoni", Bayronning "Sharq ohanglari", V.Gyugoning "Sharq she'riyati" yoki A.S.Pushkinning "Qur'onga taassuf" asarlarini dunyoga keltirdi. Ularda Sharq va G'arb motivlarining tabiiy uyg'unligini ko'rish mumkin. Shu tariqa Sharqqa xos uslub, sharqona ekzotika, ayniqsa G'arbiy Yevropa orzumandlari (romantiklari)ning sevimli motivlariga aylandi.

Ingliz badiiy adabiyotida Sharqqa qiziqish XVIII asr muqaddimasida uyg'ongan bo'lib, u 1704-yilda "Arab ertaklari", o'n etti yil o'tgach, Monteskening "Fors maktublari" asarlarining inglizchaga tarjimasidan boshlangan edi. Bu qiziqish asr oxirlariga kelib yanada kuchaydi. Sharq inglizlarni afsonalari,



fantastikasi va jimjimali cahnalar uchun boy materiallari bilan o'ziga tortgan edi. Faroyib rivoyatlar va Sharq hukmdorlarining cheklanmagan xokimiyati ko'pincha gotik romanlar uchun asosiy material bo'lib xizmat qildi.

Vilyam Bekfordning "Vatek, arab qissasi" (Vathek. An Arabian Tale. 1786) nomli asari ayniqsa ommaviylik kasb etgan edi. Adabiyot tarixchilari "Vatek"ni sharqona syujetga asoslangan "qo'rqinch va daxshatning qora romani" sifatida qabul qilishdi[2, - C.62]. Uning qaxramoni bir vaqtning o'zida iblisona darajada qo'rqinchli va olijanob, xuddi gotik romanlar qaxramonlariga o'xshaydi. Bundaylarni Bayron "Ingliz maddoxlari va shotland sharxlovchilari" (English Bards and Scotch Reviewers, 1809) nomli satirik poemasida "yarim risar – yarim jinoyatchi", deb atagan edi. Bayron "qora" romanga mensimay munosabat bildirganiga qaramasdan, umuman, "Vatek" unga ma'qul bo'lgandi. Shoirni Sharq va unga xos xamma narsa nixoyatda o'ziga tortgan edi.

Shu tariqa XVIII-XIX asrlar G'arbiy Yevropaning Sharq madaniyatini o'zlashtirish tarixida burilish davriga aylandi. Sharq mavzusiga qiziqish shunchalik yuksak ediki, bu davrga nisbatan ayrim tadqiqotchilar "sharq renesansi" (g'arbda Sharq mumtoz adabiyotining uyg'onish davri ma'nosida) tushinchasini qo'llay boshladilar[1.-P. 12]. Ingliz romantizmi vakillarining ko'pchiligi orasida Sharqqa umumiy tarzda bo'lsa-da qiziqmagan birorta shoirni topa olmaymiz. Ingliz adabiyotida o'sha davrda sharqona syujetga asoslangan poema janri ko'proq rivojlandi, lekin sharqona materialni o'zlashtirish va undan foydalanish turlicha bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Holloway Z. Widening Horizons in English Verse-Evanston. – London: Macmillan, 1970. – 250 p.
2. Челишев С. Теоретические и методологические аспекты изучение взаимодействия культур Востока и Запада. – М.: НАУКА, 1987. –170 с.
3. Sulaymonova F. Sharq va Farb. –T.: O'zbekiston, 1997. – 210 b.
4. Xolbekov M. XVII-XVIII asrlar fransuz «tavozeamuz ramonlar»ida Sharq mavzusi. //Xorijiy filologiya, 2003, №3. – B. 47-52.